



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 25.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

PEDIATRIYA SOHASIDA DORILARNI DOZALASH JARAYONLARI UCHUN EKSPERT TIZIMI ISHLAB CHIQISH

¹Asqaraliyev Odilbek Ulug'bek o'g'li., ²Xushmanov Ravshan Aktam o'g'li., ³Xushmanova Hilola
Aktam qizi

¹TATU Sun'iy intellekt kafedrasi dotsenti, ¹"RIOvaBSIAMTMDM TSHF" pediatri-neonatolog., ³TATU 2-
kurs magistranti
Uzbekistan

aasqaraliyev77@gmail.com, rxushmanov@gmail.com, hilolaxushmanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyotning eng nozik sohasidan biri bo'lgan pediatriya sohasida dori dozlash masalasini ekspert tizimi yordamida avtomatlashtirish masalasi muhokama qilingan. Sohada mavjud formulalar, dori dozlash turlari o'rganilib, produksion model asosida qurilgan algoritmlar orqali turli hisoblash usullari bo'yicha yechimlar taklif etadigan ekspert tizimi yaratilgan.

Kalit so'zlar: Ekspert tizim (ET), bilimlar ombori, produksion model, pediatriya.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос автоматизации дозирования лекарственных препаратов в педиатрии — одной из самых чувствительных областей медицины — с использованием экспертной системы. Была создана экспертная система, предлагающая решения для различных методов расчета с помощью алгоритмов, построенных на основе производственной модели, изучающей существующие в данной области формулы и типы дозировок лекарственных препаратов.

Ключевые слова: Экспертная система (ЭС), хранилище знаний, производственная модель, педиатрия.

Abstract: The article examines the issue of automating drug dosing in pediatrics, one of the most sensitive areas of medicine, using an expert system. An expert system was created that offers solutions for various calculation methods using algorithms built on the basis of a production model that studies existing formulas and types of drug dosages in this area.

Keywords: Expert system (ES), knowledge repository, production model, pediatrics.

Language: Uzbek

Citation: Askaraliyev , O., Khushmanov , R., & Khushmanova , H. (2025). DEVELOPMENT OF AN EXPERT SYSTEM FOR DRUG DOSING PROCESSES IN PEDIATRIC. Universal International Scientific Journal, 2(4), 167–175. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1513>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15280845>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Kirish. Hozirgi paytda tibbiy ekspert tizimlari yaratish, katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlarga raqamli ishlov berish masalalarini yechishning samarali usullarini topish, ularni tadqiq qilish va amaliy natijalarni olishda qo'llash, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish masalalarini hal etish, shuningdek, bilimlar bazasi qurish texnologiyalaridan foydalanib foydalanuvchiga qulay ekspert tizimi ishlab chiqish va kompyuter resurslarni tejash muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspert tizimlari sun'iy intellektning ajralmas qismi bo'lib, o'tgan asrdayoq ommalashib ulgurgan. Ekspert tizimlar turli sohalarda insonlarga yaqindan yordam berib, kasblarga doir malakani avtomatlashtiradi.

Dunyo hamjamiyati sog'lom ona va bola, sog'lom kelajak haqida qayg'urayotgan bir paytda, pediatriya sohasida dorilarni dozalarini hisoblash masalasi ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Dorilarni dozalashga doir turli hisoblash tizimlari mavjud bo'lib, ularning

aksariyati pullik yoki istalgan foydalanuvchilar foydalanishi uchun qulay emas. Bundan tashqari sohada qo'llaniladigan to'rt xil dozalash turini birlashtirgan manbaa mavjud emas, maqolada yoritilgan tibbiy ekspert tizimimiz orqali ushbu yangilikni olib kirganmiz.

Ekspert tizimlari qurishda foydalaniladigan bir nechta modellar orasidan (produksion, freym, semantik tarmoq, mantiqiy modellar) bizning masalaga va biz taklif etadigan yechimga mos keluvchi qoidalardan iborat produkcion modelni tanlab olamiz.

Produksion model asosida pediatriyada dozalash uchun ET qurish

Har bir dastur qurilishidan oldin modellashtirilib, reja tuzib olinganidek, biz ham quyida pediatriyada dozalash muammosini yechishga mo'ljallangan ET qurish uchun produkcion modelni tanlab olamiz.

Produksion so'zi inglizcha "production" – ishlab chiqarish so'zidan kelib chiqqan bo'lib, asosan forward chaining – oldinga zanjirlash orqali qurilgan Rule-Based Expert System – qoidalarga asoslangan ekspert tizimlarga nisbatan qo'llaniladi. Produksion model produksion qoidalarga asoslanadi va ularning umumiy ko'rinishi "Agar ... bo'lsa, u holda..." ko'rinishida bo'ladi.

Produksion modelni dasturlashda qoidalar 2 qismdan iborat bo'ladi:

- If – shart qismi (asos deb ataluvchi bir nechta ifodalardan iborat);


- Then – qismi, xulosalar deb ataluvchi bir nechta ifodalardan iborat qism.

Har bir if va then qismlari bir yoki bir nechta faktlar va maqsadlardan (goal) iborat bo'lishi mumkin:

Sintaksis: If [A], [B], and [C], Then [D] and [E].

Semantika: Agar A, B va C to'g'ri bo'lsa, unda D va E ham to'g'ri.

Misol sifatida tibbiy ekspert tizim qurishda produksion model asosida bilimlarni qurish algoritmi o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:




Quyida produksion model asosida bilimlarni qurish algoritmi uchun algoritm blok-

sxema ko‘rinishida beriladi. Ushbu chizma oddiy ekspert tizimlarida bilimlarni qanday tartibda

ishlab chiqish va qoida shaklida ifodalash jarayonini ko‘rsatadi.

Pediatriyada Dori Dozalash



Yuqoridagi bosqichlarni bosqichma bosqich amalga oshirib boramiz. Aniqlangan muammo sohasida bilim manbalarini to‘plab, tahlillash ishlarini olib borgandan so‘ngra produksion model qoidalarini ishlab chiqamiz.

Pediatriyada dozalash turlari

Kasallik aniqlanganda shifokor dori dozasini o‘zi belgilab beradi, ammo bazi hollarda shifokor buyurgan dorining dorixonada topilmasligi, qimmatliligi tufayli bemor tomonidan boshqa alternativ dori qabul qilinishi mumkin. Dorilar dozalari esa bir biridan farq qiladi, mana shunday holatda bizda dori dozasini mustaqil hisoblash zarurati paydo bo‘ladi.

Dori-darmonning kerakli dozasi hisoblash uchun bolaning vazni, bitta tabletkada faol moddaning miqdori ko'rsatish kerak (odatda tabletkalarning qadoqlarida, shuningdek yo'riqnomada ko'rsatilgan). Doim ham bemorning aniq vaznini o'lchashning iloji bo'lmagan boshqa holatlar uchun ham hisoblash usullari yaratilgan.

Ekspert tizim avtomatik ravishda ushbu hisob-kitoblarni bajarib, xavfsiz va samarali dori miqdori tavsiya qiladi.

Dozalash turlari 4 turga bo'linadi, ular o'zlarining qo'llanish holatlari, aniqliligi darajasi bilan ajralib turadi:

1) **Vazn bo'yicha**, eng keng tarqalgan va aniqlik jihatidan ham yuqori bo'lgan dozalash turi. Zamonaviy meditsina xizmatlarida eng ko'p tavsiya etiladigan dozalash bemor vazni bo'yicha amalga oshiriladi

$$Doza(mg) = Tavsiya_etilgan_doza \left(\frac{mg}{kg} \right) \times Bemor_vazni(kg)$$

Tavsiya_etilgan_doza – bu yerda kattalar uchun doza, dorilarning yo'riqnomasida keltirilgan dori dozasi.

2) **Yosh bo'yicha**, yosh bo'yicha dozalashning juda ko'p formulalari mavjud bo'lib, pediatriyada asosan, bola yoshi ikki guruhga bo'lingan holda hisoblanadi: 1 yoshgacha bo'lgan bolalar – oy o'lchov birligida (Fried's rule), va 1 dan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar – yillar o'lchov birligida (Young's rule).

$$Fried's\ rule_{dosing(mg)} = \left(\frac{yosh(oy)}{150} \right) \times Kattalar_{uchun\ doza(mg)},$$

agar yosh < 1

$$Young's\ rule_{dosing(mg)} = \left(\frac{yosh(yil)}{yosh(yil) + 12} \right) \times Kattalar_{uchun\ doza(mg)},$$

agar yosh ∈ [1, 12]


Shuni alohida takidlash joizki, yoshga asoslangan formulalardan faqat aniq vazn yoki BSA mavjud bo'lmaganda foydalanish lozim. Ko'pgina zamonaviy qo'llanmalar ushbu yoshga asoslangan formulalarga nisbatan vaznga asoslangan yoki BSA asosidagi dozani afzal ko'radi.

3) **Tana yuzasi (Body Surface Area) bo'yicha** dori dozalash jarayoni, bolalarda tana og'irligi va bo'yi kattalarga nisbatan boshqacha nisbatda o'zgargani sababli ba'zida vazn asosidagi dozalash yetarli aniqlikni bermaydigan holatlarda qo'llaniladi. Pediatriyada BSA (Body Surface Area – tana yuzasi maydoni) juda muhim fiziologik ko'rsatkich hisoblanadi, BSA tana hajmi va metabolik faollikni aniqroq ifodalaydi.

$$BSA(m^2) = \sqrt{\frac{Bo'y(sm) \times Vazn(kg)}{3600}}$$

$$Pediatrik_{doza} = \left(\frac{BSA}{1.73} \right) \times Kattalar_dozasi$$

Pediatriyada BSA qo'llaniladigan asosiy holatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:



4) **CICr (Kreatinin klirensi) bo'yicha,** Kreatinin klirensi buyraklar qondagi chiqindilarni qanchalik yaxshi filtrlashini ko'rsatadigan o'lchovdir. Bu buyrak funksiyasini ko'rsatadigan glomerulyar filtratsiya tezligini (GFR) baholaydi. Tozalash qiymati sarum kreatinin darajasi, bo'y va yoshga qarab hisoblanadi. Bolalarda kreatinin klirensi buyrak funksiyasini baholash uchun juda muhimdir, chunki ularning buyrak tizimi hali ham rivojlanmoqda. Bu buyrak kasalligining dastlabki belgilarini aniqlashga yordam beradi, vaqt o'tishi bilan buyraklar faoliyatini nazorat qiladi va buyrak klirensiga bog'liq bo'lgan dori dozalarini moslashtiradi.

Shvarts formulasi odatda pediatrik bemorlarda kreatinin klirensini baholash uchun ishlatiladi, bu aniq baholash va davolashni

ta'minlaydi. Shvarts formulasi pediatrik bemorlarda glomerulyar filtratsiya tezligini (GFR) baholash uchun keng qo'llaniladigan usuldir. U bo'y, sarum kreatinin darajasi va yoshga xos konstanta (k) asosida kreatinin klirensini hisoblab chiqadi. Formula buyraklar faoliyatini baholashga, anomalliklarni aniqlashga va davolash qarorlarini tanlashga yordam beradi.

$$GFR(mL/min/1.73m^2) = \frac{0.413 \times bo'y(sm)}{serum\ kreatinin(\frac{mg}{DL})}$$

• 0.413 – bu universal koeffitsient pediatrik yoshdagi bolalar uchun aniqlangan.

Kreatinin klirensi buyraklar kamolotiga va mushak massasining o'zgarishiga qarab yoshga qarab o'zgaradi, quyidagi jadvaldagi kreatinin miqdori keltirib o'tilgan:

Yosh guruhi	Oddiy kreatinin klirensi (ml/min/1,73 m ²)
Yangi tug'ilgan chaqaloqlar (≤ 28 kun)	20 – 50
Chaqaloqlar (28 kun - 2 yil)	30 – 80
Bolalar (2-12 yosh)	80 – 140
O'smirlar (12-21 yosh)	90 – 150

Shvarts formulasi buyrak funksiyasining ishonchli bahosini ta'minlasa-da, uning aniqligiga mushak massasi, hidratsiya holati va ba'zi dorilar

kabi omillar ta'sir qilishi mumkin. Yangilangan Shvarts formulasi aniqlikni yaxshilaydi, ammo


tasdiqlash uchun qo'shimcha testlar talab qilinishi mumkin.


Python dasturlash tili yordamida ET qurish

Bizga kerakli dasturlash tili sifatida python dasturlash muhitini tanlab oldik, sababi esa ushbu dasturlash tilining ekspert tizimlari qurishda juda keng imkoniyatlari mavjud. Python o'zining maxsus ekspert tizimlari uchun kutubxonalariga egaligi, tezligi va foydalanishga qulayligi bilan ajralib turadi.

Pythonida bir nechta ekspert tizimlari yaratish uchun kutubxonalar bilan tanishgan holda, pythonning standart kutubxonasidan foydalanib, qulay foydalanuvchi interfeysiga ega ekspert tizim yaratildi.

Dastur nomi "Pediatric dosing ES" deb nomlanib, unga yuqoridagi 4 xil dozlash imkonini beruvchi oynalar qo'shildi. Dasturga shuningdek, foydalanuvchiga tibbiyot sohasi murakkabligi, dastur natijalaridan shifokor bilan maslahatlashgan holda foydalanish mumkinligi haqida eslatma ham biriktirildi.





1-rasm. Ekspert tizimida mavjud hisoblash oynalari.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pediatriyada dozlash masalasini yechish uchun har qanday holatda ham juda ehtiyotkorlik va shifokor nazorati zarur bo'ladi. Bunday ekspert tizimlar esa foydalanuvchilarga yoki yosh xodimlarga ekspert tajribasidan foydalanishga yordam beradi.

Pediatriyada dozlash bo'yicha ET tibbiy bilimlarga asoslanib tuzilsa, bir qator afzalliklarga erishiladi, jumladan, klinik aniqlik yuqori bo'ladi, vaqt va resurslarni tejaydi, yangi shifokorlar uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi va eng asosiysi sog'liqni saqlash tizimida samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Expert systems: Definitions, advantages and issues in medical field applications <https://doi.org/10.1016/j.eswa.2021.114900>
2. Expert systems: Definitions, advantages and issues in medical field applications. Aurora Saibene, Michela Assale, Marta Giltri. Expert Systems with Applications Volume 177, 1 September 2021, 114900. <https://doi.org/10.1016/j.eswa.2021.114900>
3. Validity of the use of Schwartz formula against creatinine clearance in the assessment of renal functions in children. H W Dilanthi, G A M Kularatnam, S Jayasena, E Jasinge, D B D L Samaranayake, V P Wickramasinghe. Sri Lanka Journal of Child Health, 2017; 46(2): 155-159. DOI: 10.4038/sljch.v46i2.8273
4. Development problems and prospects of the medical expert systems. Masuma G. Mammadova, Zarifa G. Jabrayilova. Problems of information technology, 2017, №1, 73–83. DOI: 10.25045/jpit.v08.i1.09
5. Ekspert tizimlarini yaratishda bilimlar omborining ahamiyati va vazifalari. Tashmetov K.Sh., Aliev R.M., Aliev M.M. «Актуальные вопросы развития инновационноинформационных технологий на транспорте» АВРИИТТ-2022 I-Республиканская научно-техническая конференция (Ташкент, 21-22 ноября 2022 года). DOI: <https://doi.org/10.47689/978-9943-7818-0-1-v2-pp97-103>
6. Medical Expert Systems Survey. Bassem S. Abu-Nasser. International Journal of Engineering and Information Systems, 2017, 1 (7), pp.218-224. fihal-01610722
7. Ekspert tizimlarning asosiy turlari va ishlatilish sohalari. N.E.Duisenov. Oriental Art • February 2021.
8. Giarratano, J., & Riley, G. (2005). Expert Systems: Principles and Programming (4th ed.). Boston, MA: Course Technology. ISBN: 978-0534384479
9. Kulikov, A. V. (2020). Rule-Based Expert Systems in Medicine. Journal of Medical Systems, 44(5), 85. <https://doi.org/10.1007/s10916-020-01575-z>

10. Miller, R. A. (1994). Medical diagnostic decision support systems--past, present, and future: a threaded bibliography and brief commentary. *Journal of the American Medical Informatics Association*, 1(1), 8–27. <https://doi.org/10.1136/jamia.1994.95236145>
11. PEdeDose. SwissPedDose Foundation. (2024). Pediatric drug dosing tool. <https://www.pededose.ch>
12. MDCalc Clinical Calculators. (2024). Pediatric dosing tools. <https://www.mdcalc.com>
13. Lexicomp Pediatric & Neonatal Dosage Handbook. (2024). Wolters Kluwer Health. ISBN: 978-1975171311
14. British National Formulary for Children (BNFc). (2024). BMJ Group, RCPCH Publications, and RPS Publishing. ISBN: 978-0857114571
15. UpToDate. (2024). Pediatric drug information and clinical decision support. Wolters Kluwer. <https://www.uptodate.com>

INTERNET MANBAALARI

1. <https://www.pediatriconcall.com/calculators/creatinine-clearance-schwartz-formula-calculator>
2. <https://www.medicalalgorithms.com/>
3. <https://www.medicalalgorithms.com/calculating-total-daily-dose-by-body-surface-area>
4. <https://www.foreseemed.com/>